

OVOZ HUSUSIYATI

Tadjiyev Elmurod Bekchanovich

O'zbekiston Davlat Koservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada San'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasida Estrada vokal ansambli o'qituvchisi.

elmurodtojiev@gmail.com 97-771-44-71.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12109712>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ovozi tembri, ayollar, erkaklar va bolalar ovozlari turlari, farqlari, hususiyatlari va imkoniyatlari, ustozlar va otolaringolog shifokorlar tomonidan qilinadigan alohida e'tibor, ovoz turlarini to'g'ri aniqlash, to'g'ri yo'naltirish hamda bolalardagi o'smirlik davri ya'ni mutatsiya haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Lirik tenor, dramatik bariton, bas, alt, kontal'to, Lirik soprano, koloratura, ovoz aparati, otorinolaringolog, Loringoskopik oyna, mutatsiya.

SOUND FEATURE

Abstract. This article describes the timbre of the voice, types, differences, characteristics and capabilities of the female, male and children's voice, special attention from teachers and otolaryngologists, the exact definition of voice type, the correct manner of performance, as well as mutations in adolescence in children.

Key words: Lyric tenor, dramatic baritone, bass, alto, contralto, Lyric soprano, coloratura, voice apparatus, otorhinolaryngologist, Laryngoscope, mutation.

ЗВУКОВАЯ ФУНКЦИЯ

Аннотация. В данной статье описывается о тембре голоса, видах, различиях, особенностях и возможностях женского, мужского и детского голоса, особое внимание со стороны педагогов и отоларингологов, точное определение типа голоса, правильная манера исполнения а также о мутациях в подростковом периоде у детей.

Ключевые слова: лирический тенор, драматический баритон, бас, альт, контральто, лирическое сопрано, колоратура, голосовой аппарат, оториноларинголог, ларингоскоп, мутация.

Ovoz hususiyati deganda uning tembri, yo'g'on yoki nozikligi, harakatchanligi, jarangdorligi va kuchliligi rang - barangligi ko'zda tutiladi. Inson ovozi ruhiyati qanday bo'lsa uning xarakteri xam shunday bo'lar ekan. Bu borada yana ustozlarga murojaat qildik: "Ko'p kuzatuvlarga binoan inson ruhiyati ovoz ruhiyati bilan mos keladi. Masalan, inson og'ir, bosiq, beg'am bo'lsa, bunday kishilar ovozlari pastrok va dramatik xarakterga ega bo'ladi. Chaqqon, doim shoshilib yuradigan, jaxldor xonandalarning ovozlari esa yuqorirok bo'lib, lirik xarakterga ega bo'ladi. Lekin ko'rinishidan uzi og'ir-bosiq bo'la turib, ovozi lirik tenor xonandalarni ham uchratish mumkin. Yoki aksincha, sho'x, shovqin-suronli xonandalarning ovozlari dramatik bariton yoki bas ovozi bo'lishi ham mumkin.

Zamonaviy xonandalik pedagogikasi qadim tajribalarga, ichki hissiyotlarga boy ijrochilik maxoratiga asoslangandir. Xonandalikdan dars bera olish o'quvchini bu borada to'g'ri yo'naltira olishni nafaqat ilm, balki san'at deyish to'g'ridir. Qadimda kuylashga o'rgatish san'ati sir saqlanib kelingan. Chunki moxir ijrochi bo'lish, tajribalar ortirish uchun xonandadan juda katta vaqt, kuch,

bilim talab etilgan. Ammo hozirgi kunda tizim ancha o'zgargan. Lekin ustozning siri masalasiga keladigan bo'lsak, har bir ustoz o'z o'rgatish uslubiga ega.

Kimki xonandalikni o'rganmoqchi bo'lsa, albatta o'zining daslabki kunlaridanoq ovozinin ruhiyati va qaysi turga mansub ekanligini aniqlab olmog'i lozim bo'ladi. Buning uchun ikkita ovoz bo'yicha mutaxassis o'qituvchi va bir shifokor ya'ni otorinolaringolog kabi mutaxassislardan xay'at tuzilib, tekshirilmog'i shart. Bu xay'at a'zolari asosan bo'lajak xonandani uchta iqtidoriga baho berishlari shart: birinchisi; eshitish qobiliyati, ikkinchisi; ovozning ko'lami yoki qaysi turga mansub ekanligini aniqlash, uchinchisi; ovoz aparati, nafas va eshitish tizimini kasalliklardan holi, sog'lom ekanligini tekshirish. Daslabki ikki tekshiruv natijasini ya'ni eshitish qobiliyati va ovoz turini xonanda mutaxassislar aytib berishlari lozim.

Ovoz aparati, nafas va eshitish a'zolari tashxisini esa shifokor otorinolaringolog aniqlashi ko'zda tutiladi. Ovoz ruhiyatini, qaysi turga mansub ekanligini bir ko'rishda aniqlash qiyin albatta.

Qayta - Qayta tekshiruvlardan hamda shifokorning tashxisidan so'ng aniq bir hulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki ovoz qanchalik yo'g'on bo'lsa, tovush hosil qilishda yutqin harakati shunchalik ko'payadi va ovoz paylarining baquvvatligi seziladi. Ovoz qanchalik baland bo'lsa aksincha ovoz paylari shunchalik ingichka va yutqin nozik buladi.

Shifokor, tibbiyot fanlari doktori, otorinolaringolog Masharipov Rajabboy Raximovich bilan birgalikda ikki oy davomida ovoz bo'yicha tadqiqodlar olib borildi. Bu izlanishlar bizni yetarlicha qoniktirmadi, shunday bo'sada bir qator yutuqlarga erishildi. Loringoskopik oyna orqali ovoz paylari ulandi. Bunda ovozi bas turiga mansub xonandalarning ovoz paylarining uzunligi 20 – 22 millimetрни, baritonlar 18 - 21 mmni, tenorlar 15 - 17 mmni, al't ovozlari 14 - 16 mmni, soprano 11 - 14 mmni, yuqori yoki kolorotur soprano ovozlari 9 - 11 millimetрни tashkil etdi. Ovoz paylarini qalinligi esa yo'gon ovoz turlarida ya'ni baslarda 5 millimetрни, eng yuqori ovozlar ya'ni kolorotur sopranolarda 2 millimetрни tashkil etdi.

Ba'zan ovoz paylarining paradoksal (odatdagidek bo'lmagan, ammo tabiiy holat) ko'rinishi ham kuzatiladi. Masalan: yo'g'on bas ovoz sohibining ovoz paylari lirik tenor ovozinin ovoz paylariga o'xshaganini. Lirik soprano kontral'to ovoz paylariga, kontal'to lirik soprano ovoz paylariga o'xshash bo'lgan be'morlar e'tiborimizni tortdi.

Kuzatishlardan malum bo'ldiki, agar tekshiriluvchining ovoz paylari yukori ovozga xos bo'lsayu, to'g'ri aniqlangan tessiturada past ovoz belgilansa, demak yuqori tessiturali past ovoz uchun xarakterli bo'lgan ovoz payli xonandaga nisbatan uning ovoz apparati tez-tez yallig'lanib turgan. Bu ovozning xarakterini to'g'ri aniqlash ovoz eshitilishida yuqori yoki past tessiturasini belgilanishi lozim.

Yuqori ovozlarning ko'rinishi yo'g'on ovozlarnikidek bo'lsa, ko'p hollarda ovoz ko'lami keng, obertonlarga boy va baquvvat bo'lishi mumkin. Bu holatni biz «ijobiy mos kelmaslik» deb atadik. Eshitilishi jixatidan ayon bo'lsayu tuzilishi jixatidan yuqori ovozlarnikidek ko'rinsa, ovoz tembri chiroyli bo'lishi mumkin. Lekin ko'lam jixatidan qiska bo'ladi. Ko'pincha bunday insonlar ovozi xirillagan va notekkis bo'lganligi uchun bu holatni biz «salbiy mos kelmaslik» deb atadik.

Albatta ovoz paylarining xajmi va ovoz turi bir - biriga mos kelsa bu xonandaning yutug'i.

Oqibatda biz tekshirgan 90% xonandaning ovoz paylari xajmi va ovoz turi bir - biriga mos keldi, atigi 10% gina salbiy va ijobiy mos kelmadi.

Har bir xonanda o'z ovoz tessiturasini ya'ni turini shogirdlikni daslabki kunlaridanoq aniqlab olishi lozim. Aks holda tovush sifatini buzish kabi salbiy holatlarga olib keladi. Agar ovoz baland bo'lsa past pardalarni ijrosiga xarakat qilish besamardir. Aytaylik ovoz past bo'lsa yuqori pardalarga chiranib chiqish ham ovoz paylari zo'riqishi va oqibatda buzilishiga olib keladi.

Hayotda bu kabi ovoz sifatini buzib qo'yish hollarini ko'plab misollarini keltirishimiz mumkin.

Ovozlarni turga ajratish har qanday bilimdon ustoz uchun ham qiyin kechadi. Masalan bir o'quvchini ovozini u yoki bu turga mansub ekanligini aytish uchun avvalo ovozning tembriga ya'ni ovozning rangiga e'tibor beriladi. So'ngra uning ko'lamiga nisbatan ovozlarning turlarga ajratiladi. Ba'zida shunday ovozlarning ham uchraydiki, tembr jixatidan yo'g'on ya'ni bariton bo'lsada, k'olam jixatidan ovozining yuqori pardalari tenor kabi bo'ladi, yoki ovozi mayin yumshoqligi tenorlar singari bo'lsa ham ko'lami kichikroq ya'ni yuqori pardalarni ijro eta olmasligi ham mumkin.

Agar meditsina tomonidan olib qaraydigan bo'lsak, erkaklarda ovoz paylari va rezonatorlari xajmi nisbatan kichik bo'lsa, u albatta tenor yoki al't ovoz turidir. Qancha ovoz yo'g'onlashgan sari ovoz hosil qiluvchi a'zolarining xajmi shunchalik kengayib boradi. Lekin aytishlaricha taniqli xonanda Koruzoning ovoz paylarining xajmi baslarnikidek bo'lsada uning ovozi lirik tenor ekanligini hech kim rad eta olmaydi.

Tajribali ustozlar ovoz kuchi va quyukligi jixatidan bariton lekin ko'lam jixatidan tenorga o'xshagan ovozlarni turga ajratish uchun shu xonandaga yuqori pardalarda so'z aytirish orqali ham bilishadi. Shunda agar ovoz tenor bo'lsa avjlardagi so'zlarni anik va qiyinchiliksiz talaffuz etishadi, aks hollarda bariton yoki bas ovozining og'iz artikulyatsiyasi va nutqi past pardalardagi kabi bemalol emas, ulgurmaydi hamda qiynaladi.

Bundan tashqari ularni turlarini aniqlashda tashqi ko'rinish ham muhim ahamiyatga ega.

Agar ozg'in, harakatchan, salga jaxli chiquvchi xarakterga ega bo'lsa bu odam tenor bo'ladi. Mobodo uzun bo'yli, tepsa tebranmas, kam gap og'ir va salobatli bo'lsa bilingki u albatta bas ovoqli xonandadir.

Ba'zi ustozlarning takidlashicha «an'anaviy xonandalik sohasida ovozlarni turlarga bo'lib dars berish uslubi unchalik to'g'ri emas», deb hisoblashadi. Agar yuqori pardalarini ola olmasa bu o'quvchini o'z holiga qo'yib, ashulalarga ovozi yetmasa bir - ikki parda pastroqdan ham ijro etish mumkin deyishadi. Bu qanchalik to'g'ri yoki notug'ri ekanligi biz uchun muhim emas. Gap shundaki har bir asarning o'z pardasi, o'z ko'lami mavjud. Xonanda asarlarini me'yoriga yetkazib ijro etish uchun asardagi joziba, shiddat avjlarni go'zalligini ochib berish kabi xislatlarini ham qo'shishi kerak. Bu asarlarni yaratgan bastakorlari aynan belgilangan parda uchungina bastalashgan bo'lsachi? Bu pardalar masalasi hali uzok yillar davomida baxs munozaraga mushtok jabhalardir. Shuning uchun ham konservatoriyaga yoki kollejlarga o'qishga kirgan bo'lajak xonandalar tajribali ustoz saboqlaridan bahra olishga intiladilar.

Yosh xonanda o'qituvchilarimizning ichida oqilona dars berib, yaxshi ko'rsatgichlarga ega bo'layotganlari ham bor. Lekin yosh xonandaning ovoz ko'lamini aniqlamay turib, ovozni qiynash, ortiqcha zo'riqtirish va oqibatda ovozi sinib ketayotgan xonandalarimiz ham topiladi.

Bu albatta o'qituvchini tajribasizligidan kelib chiqadigan nohush holatdir.

Bolalar ovozlari ya'ni diskantlarni ovoz ko'lamini e'tibor bilan tekshirmay turib, ovozni zuriqtirish yaramaydi. Ma'lumki bolalar ovozlari yillar davomida ashula aytish natijasida borgan sari ko'lami kengayib, ovoz paylari mustaxkamlanib boradi. O'smirlik davriga kelib, bolalarda ovoz o'zgarishi kutiladi, buni mutatsiya ya'ni rasidalik (o'sish) davri deb ataydilar. Bolalik davrida ovozigina yaxshi ishlov berilgan xonandalar mutatsiya davridan tajribali ustoz maslahatlari bilan silliq, qiyinchiliksiz o'tadilar. Shunday holatlar bo'ladiki bolalikdagi ovoz ko'lamini yetuklik davrida ham o'zgarmaydi, ovoz to'lishishi va tembr o'zgarishini aytmaganda. Bu albatta bolalik ovozi yaxshi ishlov berilganligi va mutatsiya davrining muvaffaqiyatli kechishi oqibatidir.

Bolalik ovozlari yaxshi tarbiya toptirish va mutatsiya davrini silliq, qiyinchiliksiz o'tishi uchun ovoz mashqlarini hamda yurg'izish, qizdirish yo'llarini o'quvchiga yaxshilab o'rgatish, bu amallarsiz asar ijrosiga o'tmasligi kerakligini uqtirish, tez-tez shifokor otorinolaringolog ko'rigidan o'tish kabi muhim masalalarni tushuntirish lozim. Iloji boricha har bir dars va shifokor ko'rigidagi sezilgan o'zgarishlarni yozib belgilab borish kerak. Boladagi o'pkaning kengayishi ovoz paylarini rivojlanishi doimo nazorat ostida bo'lishi lozim. Undan tashqari ovoz ko'lamini kengayishi, asarlar xaqidagi ma'lumotlarga tobora ega bo'la borishi, asarlardagi sir - sinoatlarni o'rgana borishi va ustoz tomonidan kuzatilgan barcha o'zgarishlar yozib borilishi bo'lajak xonanda uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutatsiya davriga kelib o'smir xonanda ovoz ko'lamini bir muncha qisqaradi va ovozdagi jarangdorlik yorqinlik o'rnini nisbatan to'liqlik hamda qo'pollik egallaydi. Bu davrda xonanda keng ko'lamli asarlardan vaqtincha voz kechib, kichik ko'lamli asarlarni ijro etishi lozimdir.

Albatta ovoz mashqlarisiz ijro boshlash mutlaqo ma'n etiladi. Mashqlar ham ovozni silliqlash va ovoz paylaridan taralayotgan tovushni ortiqcha qaltis harakatidan saqlash kabilida bo'lishi shart.

REFERENCES

1. "Vokal'niy slovar" lug'at. I. Koncheva, A. Yakovleva. Leningrad 1986 yil.
2. "Voprosy vokal'noy pedagogiki" maqolalar to'plami. Moskva 1962 yil.
3. "Razvitie pevtsa i yego golosa" D.Aspelund Moskva-Leningrad 1952 yil
4. "Yosh xonandalarning kamoloti" M.Rizaeva Toshkent 2003 yil.